



TAHAKKUMNING TURLARI VA ULARNING QO'LLANISH USLUBLARI

Mavlanov Nurali Rayimovich

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi doktoranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Tahakkum uslublari buning ma'nolarining nimani ifodalashi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Uslub, tahakkum, balog'at ilmi, quraysh, Qur'on karim.

Tahakkum uslubida bashorat qo'rqtish ma'nosida, xushxabar va yaxshilik va'dasi yomonlikdan xabar, maqtov va olqishlar istehzo va masxara ma'nosida ishlatiladi. Bu ma'nolar gapning siyoqidan tushunib oliniladi¹⁸⁶.

Tahakkum uslubi so'zlovchi tomonidan so'zlanayotgan tomonga nisbatan kimsitish va istehzo ishidir.

Bu uslub kamsitilgan va istehzo qilingan tomonni yanada darg'azab qilishi barobarida, unga qaratilgan ta'sir kuchini oshiradi¹⁸⁷.

Yozishmalardagi eng ta'sirli uslub bu tahakkum uslubidagi yozishmalardir¹⁸⁸.

Tahakkumning o'ziga xos bir qancha uslublari bor. Albatta, ushbu o'rinda "uslub" so'zi haqida ham to'xtalib o'tmoq kerak.

—أسلوب uslub so'zi (arabcha) lug'atda "uzun yo'l" ma'nosini ifoda etadi. Shuningdek, uning "yo'l", "ko'rnish", "yo'nališ" misol ma'nolari ham mavjud.

Masalan, "أَنْتُمْ فِي أَسْلُوبٍ سُوءٍ" "Antum fi uslubi suin", deyilsa, buning ma'nosni "Sizlar yomon uslubdasizlar", ya'ni "yo'ldasizlar", deganidir.

Yoki mutakabbir kimsaga nisbatan "إِنَّ أَنْفَهَ لِفِي أَسْلُوبٍ" "Inna anfahu lafi uslubin" deyilsa, buning ma'nosni "Haqiqatki, uning burni bir ko'rnishda", ya'ni "takabburona ko'rnishda", deganidir¹⁸⁹.

Uslub so'zi istelohda alohida bir fan sanaladi.

Masalan, "أَخَذَ فَلَانٌ فِي أَسْلَابٍ مِنَ الْقَوْلِ، أَيْ فَنُونَ مُتَوْعِةٍ" "Axoza Fulanun fi asaliba minal-qovli" deyilganida, "Falonchi so'zlashishda turfa uslublarni, ya'ni yo'nalişlarni qo'lladi", degan ma'no o'z aksini topadi.¹⁹⁰

Ushbu so'z istelohda ilmiy yo'naliş hisoblanadi. Masalan, kotibning kitobati, shuningdek, qiroati borasida o'z yo'nalişlari bor. Dehqonning ham ziroat borasida o'ziga xos turfa yo'nalişlari mavjud¹⁹¹.

Alloh taoloning kalomida itoatsiz kimsalar haqida so'z borar ekan, tahakkum juda ham ko'p o'rinda qo'llaniladi. Maqsad, ularning sha'nini obro'sizlantirish, kamsitish, malomat qilish, o'z navbatida oldilarida katta halokat borligini anglatish, shuningdek, masxara va

¹⁸⁶ تحرير التحرير: 552/1، البرهان في علوم القرآن للزركشي: 58/4، خزانة الأدب و غالية الأربع لإبن حجة الحموي: 215، الكليات للكافوي: 303،

¹⁸⁷ الدر المصنون للسمين الحلبي: 629/9،

¹⁸⁸ الوساطة بين المتباين و خصومه للجرجاني، 24

¹⁸⁹ تحرير التحرير: 127،

¹⁹⁰ لسان العرب لإب منظور: 471/1، المعجم الوسيط لإبراهيم مصطفى: 973/1،

¹⁹¹ لسان العرب لإب منظور: 471/1، المعجم الوسيط لإبراهيم مصطفى: 973/1،



istehzo uslubida ularning tutgan yo'llari naqadar xatarli va halokat ekanligiga ishora qilishdir, ularni haqiqatda masxara qilish emas¹⁹².

Negaki, bu misol kimsalarga bildirilgan lozim va'zlar kor qilmagach va ular o'zlar uchun tegishli xulosa chiqarmagach ularning holi haqida aynan mana shu uslublarda so'z yuritish ularning tutgan yo'llari naqadar past va haqir ekanligini yaxshiroq anglatadi.

Balog'at ilmida tahakkum quyidagi uslublarda qo'llaniladi:

Birinchisi: Sovtiy (fonetik usulda hosil bo'ladigan, ya'ni ovoz va ohang bilan bog'liq) tahakkum – **الْتَّهْكُمُ الصَّوْتِيُّ**.

Ushbu uslub ikkinchi tomonning nomaqbul holatlarini yanada yorqinroq ifoda etish maqsadida undagi nomaqbul holatlarni talaffuzi juda ham murakkab va juda ham qiyin bo'lgan so'zlar yoki iboralar ohanggi bilan ifodalash.

Masalan, bir oyati karimada Alloh taolo shunday marhamat qiladi:

فَمَنِ الَّذِينَ كَفَرُوا قَبْلَكَ مُهْتَمِعُونَ، عَنِ الْيَمِينِ وَعَنِ الشِّمَاءِ عَزِيزٌ¹⁹³

Kufr keltirganlarga ne bo'ldiki, Syen tomon bo'yin cho'zib shoshilmoqdalar?

O'ng tarafdan va chap tarafdan to'p-to'p bo'lmokdalar?

Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam Qur'on tilovat qilganlarida mushriklar shoshilib kelib, to'p-to'p bo'lib o'tirishar va ko'z uzmay tikilib turishar edilar. Bu oyatda Alloh taolo shunga ishora qilmoqda.

Ular bu ishni Qur'oni Karimni eshitib hidoyat yo'liga yurish uchun emas, balki Rasulullohni masxara qilish uchun, Ul zotning so'zlarini yolg'onga chiqarish uchun qilishardi.

Ayni paytda, musulmonlar ustidan ham kulib: "Agar manavi yalangoyoqlar u dunyoda jannatga kiradigan bo'lsa, biz albatta ulardan oldin kiramiz", deyishar edi.

Bu bilan ular o'zlarining Quraysh qabilasi rahnamolari ekanliklarini, bu dunyoda boy-badavlat yashayotganliklari tufayli u dunyoda ham yuqori darajaga erishishlari kerakligini da'vo qilishardi¹⁹⁴.

Mazkur kimsalarning Qur'oni Karim tilovatini eshitish uchun kelishlari **مُهْتَمِعُونَ** "muhti'iyn" degan so'z bilan ta'bir berilmoqda.

"muhti'iyn" so'zi **مُهْتَمِعٌ** "muhti'" so'zining ko'plik shakli bo'lib, u biror bir narsa tomon shoshilib, tez-tez qadam bosib, qattiq talpinganidan bo'ynini oldinga cho'zib, boshini o'ng yoki chapga burmasdan, talpinganidan boshqa tomonga qaramasdan, ko'z qarashlarini birgina talpinayotgan narsasigagina qadagancha, undan ko'z nigohlarini uzmasdan ildamlanayotgan kimsa ma'nosini ifoda etadi¹⁹⁵.

Mushriklarning ushbu holidan aynan ushbu so'z orqali ta'bir berilishida ularning xatti harakatlari va holatlarini xos bir uslubda tasvirlab berish berish bor. Bu tahakkumning sovtiy (fonetik usulda hosil bo'ladigan, ya'ni ovoz va ohang bilan bog'liq) uslubidir.

¹⁹² الحاشية على الكشاف للشريف الجرجاني: 187

¹⁹³ Ma'orij surasi, 36-67-oyatlar.

¹⁹⁴ Шайх Мұхаммад Содик Мұхаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 6-жуз. –Т.: HIOL-NASHR, 2017. -Б.263-264.

¹⁹⁵ الصحاح للجوهرى، 3/ 1307-1036



Maxraji lablar oralig'i bo'lgan, ikki lablar orasini havo zarbidan yorilishi va havoning portlashi natijasida yuzaga keladigan "mim" (الميم) harfidan so'ng o'ta jarangsiz bo'lgan "ho" (الهاء) harfining keltirilishi, ya'ni ushbu to'lqinli ohang ularning asl holini bayon etadi. Zotan, ularning kelishlari o'zgacha, maqsadlari esa bo'lakcha edi.

Bundagi sovtiy (fonetik usulda hosil bo'ladigan, ya'ni ovoz va ohang bilan bog'liq) uslub mana shudir. E'tibor berilsa, maxraji lablar oralig'i bo'lgan, ikki lablar orasini havo zarbidan yorilishi va havoning portlashi natijasida yuzaga keladigan "mim" (الميم) harfi ularni Qur'oni karimni tinglash uchun go'yoki muxlisdek, shiddat ila kelishlarini ko'rsatib bersa, undan keyingi o'ta jarangsiz bo'lgan "ho" (الهاء) harfi qalbida zaiflik, bo'shliq va tashqaridagi holatning aksi bor ekanligi ya'ni ushbu to'lqinli ohang ularning asl holini fosh etib bermoqda.

Mazkur "muhti'iyn" so'zidagi "ho" (الهاء) harfi keyin harflarning besh xususiyati, ya'ni, jahr, shiddat, iste'lo, itboq va ismotlarni o'zida jamlagan "to" (الطاء) harfini keltirilishi va uning ortidan kelayotgan "'ayn" (العين) harfining harakatini madli bo'lishi yuqoridagi uslubning bir so'zda yana takrorlanishidir¹⁹⁶.

Bu uslub bir nazarda ularning holatini tahakkum etmoq bo'lsa, yana bir jihatdan ularning ishidan ajablanishdir.

Boshqa bir oyati karimada Alloh taolo shunday marhamat qiladi:

بِنْ يُرِيدُ الْإِنْسَانُ لِيُفْجُرَ أَمَامَهُ، يَسْأَلُ أَيَّانَ يَوْمَ الْقِيَامَةِ، فَإِذَا بَرَقَ الْبَصَرُ، وَخَسَفَ الْقَمَرُ، وَجُمِعَ الشَّمْسُ وَالْقَمَرُ،
يَقُولُ الْإِنْسَانُ يَوْمَئِذٍ أَيْنَ الْمَغْفِرَةُ؟¹⁹⁷

Balki, inson kelajakda fisku fujur qilishni xohlaydir.

Ya'ni gunohkorlar yana o'z holatlarida qolavermoqchi bo'ladilar.

"Qiyomat kuni qachon?", deb so'raydir.

Bu savol bilish uchun emas, balki inkor uchun, kiyomat qachon bo'lardi, hech qachon bo'lmaydi, demoqchi bo'lib aytilgan.

Shuning uchun ham avvalgi oyatda keltirilganidek, u o'zining fisqu fujurida davom etadi, shuni xohlaydi va shu sababdan qiyomatga ham ishongisi kelmaydi. Chunki fosiqlar havoyi nafslarining chegaralanishini hech xohlamaydilar.

Qiyomatni kofirlar inkor qilib turgan bir paytda, qiyomatning haqligi to'g'risidagi kuchli oyatlar keladi. Bir diqqat bilan e'tibor bering:

Qachonki ko'z lol qolib, qo'rqinchga to'lsa.

Va oy tutilsa.

Va quyosh bilan oy jamlansa.

O'shal kunda inson: "Qochar joy qayerda?", deb qoladi.

Bu oyatlarda qiyomatda bo'ladigan to's-to'polonlar, dahshatli voqealar va o'sha dahshatlar ichida qolgan insonning holi bayon qilingan. Ya'ni, kofir inson bu dunyoda inkor qilib yurgan narsasi yuzaga kelib, azob-uqubat, do'zaxga kirish ayon bo'lib qolganda, qochishning payiga tushadi va qayerga qochsa bo'larkin, deb so'ray boshlaydi¹⁹⁸.

¹⁹⁶ البرهان في علوم القرآن، 6 / 3702

¹⁹⁷ Qiyomat surasi, 7-10 oyatlar.

¹⁹⁸ Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 6-жуз. –Т.: HIOL-NASHR, 2017. -Б.319-320.



Айан Mazkur oyati karimadagi “qachon” degan ma’noni ifoda etuvchi so‘z aynan “ayyana”, degan so‘roq so‘zi bilan ifoda etilmoqda.

Ushbu so‘zdagi “ya” (الياء) harfi harakatining madli, ya’ni bamisoli qo‘ng‘iroq ovozi misol cho‘ziqli bo‘lishi so‘rovchining nazdi va qarashida u tomonidan so‘ralayotgan hodisaning ehtimoldan xoli, bo‘lishi mumkin emasligini bilgan holda, istehzo o‘laroq so‘rayotganini anglatadi. Uning nazdida huddi bu haqidagi xabarlar insonlarning insoniylik hissiyotlari, ishonuvchanliklari sababli yuzaga kelayotgan qarashdek, go‘yo.

Shuning uchun ham Alloh taolo bunday kimsalarning bu misol botil qarashlariga javoban ular qiyomat kunini inkor qilib turgan bir paytda, qiyomatning haqligi to‘g‘risidagi kuchli oyatlarni ketma-ketlikda keltiradi: Qachonki ko‘z lol qolib, qo‘rinchga to‘lsa. Va oy tutilsa. Va quyosh bilan oy jamlansa. O‘shal kunda inson: “Qochar joy qayerda?”, deb qoladi. Bu oyatlarda qiyomatda bo‘ladigan to‘s-to‘polonlar, dahshatli voqealar va o‘sha dahshatlar ichida qolgan insonning holi bayon qilingan. Ya’ni, kofir inson bu dunyoda inkor qilib yurgan narsasi yuzaga kelib, azob-uqubat, do‘zaxga kirish ayon bo‘lib qolganda, qochishning payiga tushadi va qayerga qochsa bo‘larkin, deb so‘ray boshlaydi. Alloh taolo ushbu keskin oyatlari orqali anavi istehzochining past qarashlariga nuqta qo‘ymoqda.

Yana boshqa bir oyati karimada Alloh taolo shunday marhamat qiladi:

الْكُمُ الْذُكْرُ وَلَهُ الْأَنْشَى، تِلْكَ إِذَا قِسْمَةً صِبْرَى¹⁹⁹،

Sizlarga erkak-u, U zotga ayolmi?!

Undoq bo‘lsa, bu noto‘g‘ri taqsim-ku!

Ey mushriklar! Siz qiz farzandlarni yoqtirmay, o‘g‘ilni afzal ko‘rasiz. Farishtalarni esa Allohnинг qizi, deysiz. Nima, siz o‘zingizga erkakni olib, Allohga ayolni berasizmi?! Sizning taqsimingiz shumi?!

Agar shundoq bo‘ladigan bo‘lsa, bu taqsimingiz juda ham noto‘g‘ri taqsimku?!

Qur’oni Karimda bir so‘z borki, u juda ham oz holatlarda ishlatiladi. U o‘ziga munosib bo‘limgan biror bir o‘rinda go‘zalligini ifoda eta olmaydi. Bu so‘z Alloh taolonning **الْكُمُ الْذُكْرُ وَلَهُ الْأَنْشَى، تِلْكَ إِذَا قِسْمَةً صِبْرَى** (diizaa) so‘zidir.

Inkoriy savolni ifoda etuvchi avvalgi “Sizlarga erkak-u, U zotga ayolmi?!” oyati karimaning o‘zi ularning qarashlari botil ekanligini ifoda etsada, Alloh taolo ikkinchi oyati karima, xususan undagi mazkur **صِبْرَى** (diizaa) so‘zi ila ularning qarashlarini tahqirlamoqda. Bu so‘z o‘zining nodirligi va ikki mad, cho‘ziq orqali bir pastga, keyin esa tepaga qalqitib, qarashlari ham shunaqa qalqituvchi, xavfli ekanligini ifoda etadi.

Demak, ushbu uslub nomaqbtlar tomonning nomaqbtlar ishlari bilan bog‘liq nomaqbtlar holatlarini yanada yorqinroq ifoda etish maqsadida o‘sha holatni talaffuzi juda ham murakkab va juda ham qiyin bo‘lgan so‘zlar yoki iboralar ohanggi bilan ifodalash.

Ikkinchisi: Siyg‘alash – morfologik tahakkum (so‘zlarni turli uslubda turlash bilan bog‘liq tahakkum) – **التَّهْكُمُ الصِّيفِيُّ**.

Arab tilida har bir so‘zning lug‘aviy asl moddasini siyg‘alash orqali, ya’ni morfologik jihatidan o‘sha so‘z uchun yangidan yangi ma’nolarni shakllantirish mumkin. Tahakumning bu uslubi aynan mana shu uslubni qo‘llash orqali yuzaga keladi.

¹⁹⁹ Najm surasi, 21-22 oyatlar.



Ushbu uslub ikkinchi tomonning nomaqbul holatlarini yanada yorqinroq ifoda etish va ko'zlangan turfa ma'nolarni aks ettirish maqsadida ma'lum bir so'z yoki iboralarni arab tilining o'ziga xos bo'lgan ma'lum shakllarida turlash.

Ularning biri ko'plik ma'nosini ifoda etuvchi "mim" harfidir.

Masalan, bir oyati karimada Alloh taolo shunday marhamat qiladi:

وَمَا أَرْسَلْنَا فِي قُرْآنٍ إِلَّا قَالَ مُتَرْفُوهَا إِنَّا بِمَا أَرْسَلْنَا مِنْهُ كَافِرُونَ،

Суре Сиа, 34

Qaysiki bir shahar-qishloqqa ogohlantirguvchi yuborsak, albatta, uning maiyhatbozlari: "Biz, albatta, sizlar orqali yuborilgan narsaga kufr keltirguvchilarmiz", dedilar.

Ushbu oyati karimada biz "maishatbozlar" deb tarjima qilgan toifa maishatga berilib, barcha nozu ne'matlarga ega bo'lib olib, hukmini o'tkazgan, kishilarni yomonlikka boshlagan, xalqning yelkasiga minib olgan shaxslardir.

Tarixda qaysi joyga Alloh taolo ogohlantiruvchi – payg'ambar yuborsa, albatta, o'sha yerning maishatboz kattakonlari unga qarshi chiqib, oddiy odamlarni unga ergashishdan qaytarganlar. Chunki o'sha maishatboz, zolim va fosiq rahbarlar payg'ambar shaxsida o'z hukmlari, jamiyatdagi tutgan o'rinalarini tortib oluvchi raqibni ko'rganlar. Agar payg'ambarning gapi o'tib, ularning ishi yurishib ketsa, xalq ommasi maishatboz rahnamolardan yuz o'girib, payg'ambarlar ortidan ergashishi turgan gap.

Shu sabab har bir yurtning maishatboz boshliqlari jon-jahdlari bilan payg'ambarlarga qarshi chiqqanlar. Ular payg'ambar kelishi bilan darhol butun xalq nomidan: "Albatta, biz sizlar ila yuborilgan narsaga kufr keltirguvchilarmiz", deganlar.

Odatda shunaqa, turli qing'ir yo'llar bilan xalqning yelkasiga minib olgan zolimlar o'zlarining kufroni fikrlarini xalq nomidan aytishga jur'at qiladilar.

Muhammad sollallohu alayhi vasallam Payg'ambar bo'lib kelganlarida ham xuddi shunday holat sodir bo'ldi. Ahli Makkaning maishatboz kattalari u zot sollallohu alayhi vasallamga yuborilgan dinga kufr keltirganlarini e'lon qildilar. Oddiy xalqni ham u zot sollallohu alayhi vasallamga ergashishdan qaytardilar. Demak, bu ish barcha zamon va makonda bo'lib kelgan. Yana takrorlansa, ajablanish kerak emas.

Maishatboz kattalar o'zlarining kofirliklarini e'lon qilish bilan kifoyalanib qolishmaydi. Balki, oxirat haqida gap ketsa, u yerda ham najot topishlari xususida safsata sotadilar.²⁰⁰

Mazkur oyati karimadagi "أَرْسَلْتُمْ" "ursiltum" so'zidagi ko'plik ma'nosini ifoda etuvchi "mim" (الميم) harfi qaysidir shahar-qishloq emas, balki har bir shahar-qishloqning maishatboz boshliqlari o'zları uchun yuborilgan payg'ambarlarga qarshi chiqib, ularga shu so'zni aytganlarini ifoda etadi.

Ushbu oyati karimada ko'plik shakli bilan xitob qilinishi tahakkumning bir yo'nalishidir.

Haqiqatdan ham har bir shahar-qishloqning maishatboz boshliqlari o'zları uchun yuborilgan payg'ambarga ko'plik ma'nosini ifoda etuvchi "mim" (الميم) harfi bilan murojaat

²⁰⁰ Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 5-жуз. –Т.: HIOL-NASHR, 2017. -Б.25.



etib, “Birgina sen olib kelgan narsani emas, balki sendan avvalgi sen kabi da’vo bilan kelgan barcha payg‘ambarman, deganlarning da’vosini inkor etuvchilarmiz”, deya ularni kamsitishmoqda, istehzo qilmoqda.

Ushbu uslubning yana bir shakli ismu foil siyg‘asidir. Masalan, bir oyati karimada Alloh taolo shunday marhamat qiladi:

وَإِذْ قَالَتْ أُمَّةٌ مِّنْهُمْ لَمْ تَعْظُمْنَ قَوْمًا اللَّهُ مُهْلِكُهُمْ أَوْ مُعَذِّبُهُمْ عَذَابًا شَدِيدًا قَاتَلُوا مَعْزَرَةً إِلَى رَبِّكُمْ وَلَعَلَّهُمْ يَنْقُونَ، سورة الأعراف، 164،

Ulardan bir jamoat: “Alloh halok qiluvchi yoki shiddatli azob bilan azoblovchi qavmga va’z qilib nima qilasiz?!” deganida, ular: “Robbingizga uzr bo‘lishi uchun va shoyadki, taqvo qilsalar deb”, - dedilar.

Ya’ni, uchinchi bir guruh o‘zlarini boshqacha tutdilar. Nasihat qilayotgan jamoaga murojaat qilib, bu osiylar qilar ishni qilib bo‘lishdi, endi Alloh taolo ularni halok qiladi yoki qattiq azob bilan azoblaydi, ularga nasihat qilib nima qilasiz, baribir foydasi yo‘q, dedilar.

Ulardan bir jamoat: “Alloh halok qiluvchi yoki shiddatli azob-la azoblovchi qavmga va’z kilib nima qilasiz?!” deganida, nasihat qiluvchilar esa biz bu nasihatni “Robbingizga uzr bo‘lishi uchun va shoyadki, taqvo qilsalar, deb” qilmoqdamiz, dedilar.

Ya’ni, Alloh taoloning oldidagi burchimizni ado etdik. Oxirat kuni Alloh taolo so‘rab qolsa, haqqimizga uzr bo‘lishi uchun ularga nasihat qildik va yana shoyadki, nasihat ta’sir etib, taqvo qilib qolsalar, degan umidimiz bor edi, dedilar²⁰¹.

Ushbu oyati karimadagi “halok qiluvchi” va “shiddatli azob bilan azoblovchi” deya tarjima qilingan **مُعَذِّبُهُمْ** va **مُهْلِكُهُمْ** so‘zları ismi foil shaklida keltirilgan. Ushbu ikki so‘zlarni hozirgi yoki kelasi zamon fe’li shaklida emas, balki ismi foil shaklida keltirilishi bu ishlarning bir muddat bo‘lib o‘tishini emas, balki davomiyligini bildiradi. Ulkan halokat va azobdan ushbu davomiylik ma’nosini ifoda etuvchi ismi foil siyg‘asi shakli bilan ta’bir berilishida bu so‘zlar qaratilgan ikkinchi tomon uchun tahakkum uslubining qo‘llanishi bor.

Ba’zi mufassirlar “Alloh halok qiluvchi yoki shiddatli azob bilan azoblovchi qavmga va’z qilib nima qilasiz?!” savoli Sabt ahlining so‘zları bo‘lib, ular bu so‘zlarni ularga tanbeh berib, ulkan halokat va azobdan ogohlantirayotgan kimsalarga qarata tahakkum, istehzo o‘laroq aytganlar²⁰².

Ushbu uslubning yana bir shakli mubolag‘a, ya’ni sifatning orttirma darajasidir. Masalan, bir oyati karimada Alloh taolo shunday marhamat qiladi:

وَيَدْعُ الْإِنْسَنَ بِالشَّرِّ دُعَاءً هُبْلَيْرٌ وَكَانَ الْإِنْسَنَ عَجُولًا، سورة الإسراء، 11

Inson yaxshilikka duo qilganidek, yomonlikka ham duo qilur. Inson o‘ta shoshqaloq bo‘lgandir.

Ya’ni iymonsiz, Qur’on hidoyatidan mahrum bo‘lgan har bir inson o‘zini yaxshilikka urganidek, yomonlikka ham uraveradi. Chunki u nima yaxshi va nima yomon ajrata olmaydi. Shuningdek, yaxshilik tilab duo qilganidek, yomonlik tilab ham duo qilaveradi. U

²⁰¹ Шайх Мұхаммад Содик Мұхаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 2-жуз. –Т.: HIOL-NASHR, 2017. -Б.394.

²⁰² روح المعاني، 47/3



avval yomonlikni anglab yetmaydi, anglagan chog'ida ham undan o'zini to'xtata olmaydi²⁰³.

Oyati karimadagi "O'ta shoshqaloq" deya tarjima qilingan ﻋَجُولًا so'zi mubolag'a, ya'ni sifatning orttirma darajasidir. Bu uslub o'sha oxirat kuni dagi azobga ishonmaydigan insonni o'sha azobga ishonmasligi barobarida, shoshqaloqlik qilib, qani o'sha azob haqibat va bor bo'lsa, tezroq, hoziroq kela qolsin, boshimizga tushsin, deyishidir. Bu uning oziratdagi azobni istehzo qilishidir²⁰⁴.

Ushbu uslubning yana bir shakli so'zni talab va so'rov ma'nosini ifoda etuvchi o'ninch bob – استفعل vazniga tushirish. Masalan, bir oyati karimada Alloh taolo shunday marhamat qiladi:

وَيَسْتَعْجِلُونَكَ بِالْعَذَابِ وَلَنْ يُخْلِفَ اللَّهُ وَعْدَهُ وَإِنَّ يَوْمًا عِنْدَ رَبِّكَ كَلْفٌ سَنَةٌ مِّمَّا تَعْذُونَ، سُورَةُ الْحَجَّ، 47

"Ular sendan azobning tezrok kelishini so'rilar. Holbuki, Alloh va'dasiga xilof qilmas. Darhaqiqat, Robbing huzuridagi bir kun siz sanaydigan ming yildekdir".

Kofirlarning kasbi shu. O'zidan oldin o'tganlarning halokatini, halokatga uchrash sabablarini ko'rib-bilib turib ham, yana ularning xatolarini takrorlaydilar. Ularga, kufr keltirmanglar, isyon qilmanglar, yana, avval o'tgan kofirlarga kelgan azob sizga ham kelib qolmasin, deyilsa, ular Sendan azobning tezrok kelishini so'rilar.

Bu bilan ular Alloh tomonidan vaqtincha tark etib qo'yilganlarini tushunmay, g'ururga ketadilar. Payg'ambarni masxara qiladilar. Ularga azob kelishini Payg'ambar o'zidan chiqarib aytgani yo'q. U Alloxning va'dasini yetkazgan edi, xolos. Holbuki, Alloh va'dasiga xilof qilmas.

Modomiki, kofirlarga azob yuborishni va'da qildimi, ularga Allohnинг azobi albatta keladi. Shoshilmay tursinlar. Azobni kachon yuborishni Allohnинг O'zi biladi. Alloh taolo hech shoshilmaydi.

Darhaqiqat, Robbing huzuridagi bir kun, siz sanaydigan ming yildekdir. Shuning uchun ham U Zot hech shoshilmaydi²⁰⁵.

Ushbu oyati karimadagi "يَسْتَعْجِلُونَكَ بِالْعَذَابِ" ular sendan azobning tezrok kelishini so'rilar" deya tarjima qilingan oyati karimada "tezrok kelishini so'rilar" so'zi tahakkum uslubidir. Ular "Sen aytgan o'sha azob qani?! Agar u haqiqat bo'lsa, uni ustimizga tushir, qani u?!", deya istehzo qilishar edi.

التهكم النحوي – Sintaksis tahakkum –

Bu uslub nomaqbul tomonning nomaqbul ishlari bilan bog'liq nomaqbul holatlarni yanada yorqinroq ifoda etish va ko'zlangan turfa ma'nolarni aks ettirish maqsadida quyidagi beshta uslublardan birini qo'llash:

1. Xabarlik uslubda (masalan, sodir bo'lgan ish harakatining nisbatini uni bajaruvchisidan boshqaga bog'lash, yaqindagi holatga uzoq uchun qo'llaniladigan ishora so'zlarini qo'llash va hokazo).

²⁰³ Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 3-жуз. –Т.: HIOL-NASHR, 2017. -Б.396.

²⁰⁴ الكشاف للزمخري، 2 / 651

²⁰⁵ Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 4-жуз. –Т.: HIOL-NASHR, 2017. -Б.35-36.



Ushbu xabarlik uslubni sodir bo'lgan ish harakatining nisbatini uni bajaruvchisidan boshqaga bog'lash shakli orqali ko'rib chiqamiz. Masalan, bir oyati karimada Alloh taolo shunday marhamat qiladi:

قَالُوا أَنْتَ فَعَلْتَ هَذَا بِالْهَنْتَأْ يَا إِبْرَاهِيمَ، قَالَ بَلْ فَعَلْتُهُ كَبِيرُهُمْ هُذَا فَاسْأَلُوهُمْ إِنْ كَانُوا يَنْطَقُونَ، سُورَةُ الْأَنْبِيَاءِ، 62

•63

"Ular: "Xudolarimizga buni sen qildingmi, ey Ibrohim?" -dedilar".

Ya'ni xudolarimizni parcha-parcha qilib tashlagan senmisan, dedilar.

U: "Yo'q, buni manavi, ularning kattasi qildi. Agar gapiradigan bo'lsalar, ulardan so'rab ko'ringlar", dedi.

Ibrohim alayhis salom ularning bu savoliga javoban: Yo'q, bu ishni o'sha xudolaringizning kattasi qildi, hamma kichik xudolarni sindirib tashlab, o'zi butun qoldi. Agar menga ishonmasangizlar, xudolaringiz gapiradigan bo'lsalar, ularning o'zlaridan so'rab ko'ringlar, dedilar.

Ibrohim alayhis salomning bu gaplarida har qanday johilning ham hushini joyiga keltiradigan haqiqat bor edi. Butlar xudo bo'lsa, qanday qilib parcha-parcha bo'lib ketadilar?! Qanday qilib o'zlarini kim sindirganini aytib bera olmaydilar?! Ey mushriklar, sizlar butlarga xudo deb sig'inmoqdasizlar. Lekin parchalanib ketadigan narsa xudo bo'la oladimi?! O'zini kim sindirganini aytib bera olmaydigan narsa xudo bo'la oladimi?!

Ibrohim alayhis salomning tahakkum uslubidagi bu gaplari mushrik qavmiga ta'sir qildi²⁰⁶.

2. Inshoviy uslubda (masalan, so'roq, inkor ma'nosidagi savol, buyruq, duo, maqtov va hokazo misol uslublarni qo'llash).

Ushbu inshoviy uslubni so'roq shakli orqali ko'rib chiqamiz. Masalan, bir oyati karimada Alloh taolo shunday marhamat qiladi:

قَالُوا يَا شَعِيبَ أَصَلَّاثَكَ تَأْمُرُكَ أَنْ نَتْرُكَ مَا يَعْبُدُ آبَاؤُنَا أَوْ أَنْ نَفْعَلَ فِي أَمْوَالِنَا مَا نَشَاءُ إِنَّكَ لَأَنْتَ الْحَلِيمُ الرَّشِيدُ، سُورَةُ هُودٍ، 87

•87

Ular: "Ey Shu'ayb, senga bizning otalarimiz ibodat qiladigan narsani tark qilmog'imizni yoki mollarimizda Xohlaganimizni qilmasligimizni namozing amr qilmoqdam?! Sen juda haliym va rashid ekansan-da", dedilar.

Qadim zamondagi mushrik va kofirlar Shuayb alayhissalomning faqat Allohnинг O'zigagina ibodat qilish, Uning dasturi asosida yashash va iqtisodiy aloqalarda vafoli va adolatli bo'lish, buzg'unchilikni tark etish xususidagi da'vatlariga:

"Ey Shuayb, namozing senga otalarimiz ibodat kilib kelgan narsani yoki mollarimizda xohlaganimizni qilishimizni tark qilmog'imizni amr qilmoqdam?!" deb javob berdilar.

Ular johildirlar, nihoyatda johildirlar, bu dunyo hayoti uchun iymon va namoz eng zarur omil ekanini bilmaydilar. Ular iqtisod, oldi-berdi masalasida ham iymon va namoz eng muhim omil ekanini tushunishni xohlamaydilar. Shuayb alayhissalomning nasihatlarini namozning taqozosi deb biladilar. Ular din masalasi namoz bilan chegaralanishi kerak, deb o'yaydilar. Shuning uchun ham ularni halol-poklikka chaqirayotgan Shuayb alayhissalomga zaharxanda qilib: "Sen juda halim va rashid ekansanda", dedilar".

²⁰⁶ Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. З-жуз. –Т.: HIOL-NASHR, 2017. -Б.632.



Ya'ni, sen juda sabrli, bosiq va aqli-hushi joyida, nihoyatda to‘g‘ri tasarruf qiladigan odam ekansanda, dedilar.

Bu gaplari istehzo va kamsitishdan boshqa narsa emas.

Qavmi shunday johilona gaplarini aytgandan keyin ham Shuayb alayhissalom ularga yaxshi muomala qildilar, shirin gapirdilar. Zotan, u kishining laqablari ham Xatiybul anbiyo – nabiyilar xatibi, edi. U zotda kishilarga xitob qilish uslubi yetuk darajada edi²⁰⁷.

Ular bu gaplari bilan haqiqatni ifoda etib, o‘sha haqiqatni tahakkum etmoqdalar. O‘z navbatida Shuayb alayhissalomni ham o‘zlaridagi bor sifatlarni aytib, o‘sha haqiqatga haqli bo‘lgan fazilatlarini istehzo qilmoqdalar²⁰⁸.

Ushbu inshoviy uslubni inkor ma’nosidagi savol shakli orqali ko‘rib chiqamiz. Masalan, bir oyati karimada Alloh taolo shunday marhamat qiladi:

فَلْ مَنْ حَرَمَ زِينَةَ اللَّهِ الَّتِي أَخْرَجَ لِعِبَادِهِ وَالْطَّيَّبَاتِ مِنَ الرِّزْقِ فَلْ هُوَ لِلَّذِينَ ظَاهَرُوا فِي الْحَيَاةِ الدُّنْيَا خَالِصَةٌ يَوْمَ الْقِيَامَةِ كَذَلِكَ تُنْعَلِّمُ الْأَيَّاتِ لِقَوْمٍ يَعْلَمُونَ، سورة الأعراف، 32

Sen: “Alloh O‘z bandalariga chiqargan ziynatlarni va pokiza rizqlarni kim harom qildi?!” - deb ayt. Sen: “Ular hayoti dunyoda iymon keltirganlarga, qiyomat kunida esa faqat o‘zlariga xosdir”, deb ayt. Biladigan qavmlar uchun oyatlarni mana shunday mufassal bayon qilurmiz”.

Ushbu oyatlar egnilariga kiyim kiymay tavof qilishni, haj mavsumida yaxshi taom iste’mol etmaslikni o‘zlariga rusum kilib olib, bu Allohnning amri, deb yurgan arab mushriklarining qilmishlari noto‘g‘ri ekanini bildirish uchun tushgani va bu orqali hamma zamon kofirlariga xitob qilinayotgani boshda aytib o‘tilgan edi.

Yalang‘och holda tavof qilish joiz emasligini tushunib yetgan musulmonlar kiyim-bosh bilan tavof qilishsa, mushriklar ularning ustilaridan kulishgan. Shunda Alloh taolo mazkur oyati karimani nozil qilgan. Bu g‘aroyibotni ko‘ringki, o‘zi yalang‘och tavof qila turib, kiyim-bosh bilan tavof qilayotganning ustidan kulyapti. Inson tabiatiga futur yetsa, shunday bo‘ladi. Hozirgi zamon mushriklari burungi salaflaridan ham o‘tib ketdilar. Ular Islom ahlining har bir amalidan kuladilar. Ammo, o‘zlarini zig‘ircha bilmaydilar. Musulmon kishi ularga e’tibor bermay, Alloh taoloning amriga amal qilaverishi lozim.

Modomiki, Alloh taolo o‘sha kiyimlarni bandalarga halol qilib qo‘yibdimi, demak, hech kim uni harom qila olmaydi. Shuningdek, Alloh pokiza taomlarni bandalariga rizq qilib berib qo‘yibdimi, ularni ham hech kim harom qila olmaydi.

Ziynat kiyimlari va pokiza taomlar iymonlilar uchun bo‘lmay kim uchun bo‘lsin! Bu rizqu ro‘ziga moddiy dunyoda boshqalar ham sherik bo‘lishi mumkin, ammo oxiratda, ushbu oyati karimada ta’kidlanganidek, ziynat liboslari va pokiza rizqlar faqat Mo‘minlarga xos bo‘ladi. Allox taolo O‘z zotiga iymon keltirgan bandalariga hech qachon xushrÿy kiyim-boshlarni va pokiza taomlarni harom qilmaydi²⁰⁹.

3. Jumladagi ziddiyat.

²⁰⁷ Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 6-жуз. –Т.: HIOL-NASHR, 2017. -Б.526-528.

²⁰⁸ روح المعانی، 312/6

²⁰⁹ Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 2-жуз. –Т.: HIOL-NASHR, 2017. -Б.306-307.



Masalan, bir oyati karimada Alloh taolo shunday marhamat qiladi:

ذُقْ إِنَّكَ أَنْتَ الْعَزِيزُ الْكَرِيمُ، سورة الدخان، 49،

“Totib ko'r! Albatta, sen o'zing “azizu mukarramsan!”

Qiyomat kuni jahannam ahliga aytiladigan so'z mana shunday bo'ladi: Qani, yolg'onga chiqarganing – jahannam azobini totib ko'r, endi. Holan sen “azizu mukarramsan”!

إِنَّ هَذَا مَا كُنْتُمْ بِهِ تَمْتَرُونَ، سورة الدخان، 50،

“Albatta, bu siz (bo'lishida) shubha qilib yurgan narsadir!”.

Bu gaplar ularning dunyoda “men azizu mukarramman”, deb maqtanib yurganlari uchun, oxirat azobiga shubha qilganlari uchun itobdir²¹⁰.

Demak, yuqoridagi maqtov aslida maqtoq emas, balki, istehzo ma'nosidadir. Buning ma'nosisi: sen aslida o'ta gunohkor va baxtsiz kimsasan, deganidir.

Yana bir misol:

فَبَشِّرْهُمْ بِعَذَابٍ أَلِيمٍ، سورة الإنفاق، 24،

“Ularga alamlı azobning “bashoratini ber”.

Iymon keltirmaganlari, ularga Qur'on o'qilganda sajda qilmaganlari, Alloh taolo iymon keltirishga amr qilgan narsalarni yolg'onga chiqarganlari uchun ularga qiyomatda alamlı azoblar bo'lishining “bashoratini” bergin²¹¹.

Bashorat so'zi hali yuzaga kelmagan, istiqbolda bo'ladigan xayrli va xush ishning xabarini berish, ma'nosini anglatadi. Bu o'rinda tahakkum uslubida qo'llanilmoqda. Demak, oyati karimadagi “bashoratini ber” so'zidan murod ogoh et, qo'rqtigin, deganidir.

4. Bir so'zni boshqa bir so'z o'rnida qo'llanilishi.

Masalan, bir oyati karimada Alloh taolo shunday marhamat qiladi:

هَذَا نُزُلُّهُمْ يَوْمَ الدِّينِ، سورة الواقعة، 56،

56. “Bu ularning qiyomat kunidagi “ziyofatlari” mana shu!

Alloh taolo bunaqa “ziyofat”dan asrasin²¹²!

Oyati karimadagi “nuzul” (نُزُل) so'zi mehmon uchun tortiq etiladigan ilk taomga nisbatan aytildi. Bu o'rinda tahakkum ma'nosida qo'llanmoqda.

5. Jumlada odatda istehzo ma'nolarini ifoda etadigan so'zlarni qo'llash.

Masalan, bir oyati karimada Alloh taolo shunday marhamat qiladi:

أَفِئْنُ هَذَا الْحَدِيثٌ تَعْجَبُونَ، وَتَضْحَكُونَ وَلَا تَبْكُونَ، سورة النجم، 59-60،

“Bu so'zdan sizlar ajablanasizlarmi?!?”.

Ey mushriklar! Sizlar ushbu Qur'ondan ajablanasizlarmi? Uni, nahotki, Allohnинг huzuridan bo'lsa, deb istehzo qilasizlarmi?!

“Va kulasizlar-u, yig'lamaysizlarmi?!?”.

Ey mushriklar! Sizlar Qur'oni masxara qilib, uning ustidan kulasizlarmi? Uning ichidagi sizga o'xshaganlarga va'da qilingan og'ir azoblardan yig'lamaysizlarmi²¹³?!

²¹⁰ Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 5-жуз. –Т.: HIOL-NASHR, 2017. -Б.306-307.

²¹¹ Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 6-жуз. –Т.: HIOL-NASHR, 2017. -Б.431.

²¹² Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 6-жуз. –Т.: HIOL-NASHR, 2017. -Б.34.

²¹³ Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 5-жуз. –Т.: HIOL-NASHR, 2017. -Б.645.



Biror narsaning ustidan kulish odatda uni tahqirlash va istehzo qilishni ifoda etadi. Ushbu oyati karimadagi kulish ham kofirlarning istehzosidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar.

1.1. “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni // <https://lex.uz/docs/4561730>

1.2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova // <http://www.lex.uz>

1.3. Mirziyoyev Sh.M . Erkin va farovon,demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.

1.4. Mirziyoyev Sh.M. 2020-yilning 24-yanvarida Oliy Majlisga Murojaatnomasi //<http://www.lex.uz>

1.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 22 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Xalq so‘zi, 2017 yil 23 dekabr. 258- son.

1.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni / Xalq so‘zi, 2019 yil 22 oktyabr.

2. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar.

O'zbek tilidagi adabiyotlar:

2.1.An-Na'im “arabcha-o'zbekcha lug‘at”, -Toshkent: Abdulla Qodiriy nashriyoti, 2003 – 959 b.

2.2.O'zbek tilining izohli lug‘ati (I jild). – Toshkent: “O'zbekiston milliy yensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti,. –B. 665.

2.3.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. –T.: HIOL-NASHR. 2017. -B.411.

2.4.Shayx Usmonxon Temurxon Samarqandiy. Tafsiri Irfon. –T.: Sharq HMAK/ 2019. -B.411.

Arab tilidagi adabiyotlar:

ابن أبي الإصبع المصري، بديع القرآن، تقديم و تحقيق حفي مهد شرف، نهضة مصر، إحياء التراث 2.5. الإسلامي، 2018

ابن أبي الإصبع المصري، تحرير التحبير في صناعة الشعر والنشر و بيان اعجاز القرآن، تحقيق و تقديم 2.6. الدكتور حفي مهد شرف، الجمهورية العربية المتحدة، المجلس الأعلى للشؤون الإسلامية، لجنة دار إحياء التراث الإسلامي، 2017

ابن منظور محمد بن مكرم المصري، لسان العرب، الطبعة الأولى، دار صادر، بيروت، 2015 2.7.



- أبو البركات عبد الله بن أحمد بن محمود النسفي، ت 710 هـ، مدارك التنزيل و حقائق التاویل، دار ابن 2.8.
كثير، دمشق - بيروت، 2019/1440.
- أبو عبد الله محمد بن أحمد الأنصاري القرطبي، ت 671 هـ، الجامع لأحكام القرآن، دار الكتاب العربي، 2.9.
بيروت - لبنان، 2017/1438.
- الأستاذ الدكتور وهبة الزحيلي، ت 2015 مـ، التفسير المنير في العقيدة و الشريعة و المنهج، دار 2.10.
الفكر، دمشق - بيروت، 2014/1435.
- الأستاذ الدكتور وهبة الزحيلي، ت 2015 مـ، الموسوعة القرآنية الميسرة، دار الفكر، دمشق - 2.11.
سوريا، 2014/1435.
- الإمام أبو داود سليمان بن الأشعث الأزدي السجستاني، ت 275 هـ، كتاب السنن، تحقيق محمد عوامة، 2.12.
دار اليسر، المدينة المنورة، 2010/1431.
- الإمام أبو منصور محمد بن محمود الماتريدي، ت 333 هـ، تأویلات أهل السنة، دار الكتب العلمية، 2.13.
بيروت - لبنان، 2005.
- الإمام الحافظ أحمد بن علي بن حجر العسقلاني، ت 852 هـ، فتح الباري على شرح البخاري، دار 2.14.
الفيحاءالرياض، 2000/1421.
- الإمام العلامة بدر الدين أبو محمد محمود بن أحمد العيني، ت 855 هـ، عمدة القاري شرح صحيح 2.15.
البخاري، دار الكتب العلمية، بيروت - لبنان، 2018/1439.
- الإمام ناصر الدين أبو سعيد عبد الله بن عمر الشيرازي البيضاوي، ت 1286 هـ، أنوار التنزيل و 2.16.
أسرار التأویل، دار المعرفة، بيروت - لبنان، 2017/1438.
- جار الله أبو القاسم محمود بن عمر بن عمر الخوارزمي الزمخشري، ت 538 هـ، الكشاف عن 2.17.
حقائق التنزيل و عيون الأقاويل في وجوه التأویل، عالم الكتب، بيروت، 2016.
- جلال الدين عبد الرحمن بن أبي بكر السيوطي، ت 911 هـ، دار ابن حزم، بيروت - لبنان، 2.18.
2018/1439.
- الدكتور محمد راتب النابلسي، ندب آيات الله في النفس و الكون و الحياة، الفرسان للنشر و التوزيع، 2.19.
الأردن - عمان، 2017/1438.
- العلامة التفتازاني، ت 791 هـ، البلاغة الصافية في المعاني و البيان و البدع، بيت العلم، 1416، 2.20.
- العلامة الشيخ أحمد بن محمد الصاوي المصري الخلوقى المالكى، ت 1241 هـ، حاشية الصاوي على 2.21.
تفسير الجلالين، دار الكتب العلمية، بيروت - لبنان، 2018/1439.
- العلامة المحدث أبو الحسن عبد الله بن العلامة محمد عبد السلام المباركفوري، ت 1414 هـ، مرعاة 2.22.
المفاتيح شرح مشكاة المصابيح، مدار القبس، الرياض، 2017/1438.
- العلامة محمود بن حافظ حسن المغنى، مغني الطالب شرح متن ايساغوجي في علم المنطق للإمام 2.23.
العلامة أثیر الدین الأبهري، دار الفيحاء، دمشق - سوريا، 2018/1439.
- العلوي يحيى بن حمزة، كتاب الطراز المتضمن لأسرار البلاغة و علوم حقائق الإعجاز، مطبعة 2.24.
المقططف، بمصر، 2001.
- علي الجارم و مصطفى أمين، البلاغة الواضحة، البشري، كراتشي - باكستان، 2015/1436، 2.25.
- القرآن الكريم، 2.26.
- مجموعة المؤلفين، دروس البلاغة، دار ابن حزم، بيروت - لبنان، 2012/1433، 2.27.
- محمد تقى العثمانى، فتح الملهم بشرح صحيح مسلم، دار القلم، دمشق، 2006/1427، 2.28.
- محمد على الصابوني، ت 1442 هـ، روائع البيان تفسير آيات الأحكام من القرآن، الدار العالمية، جاکرتا 2.29.
- أندونيسيا، 2015/1436.
- محمود أنور شاه بن معظّم شاه الكشميري الهندي، ت 1352 هـ، العرف الشذى شرح سنن الترمذى، 2.30.
دار الكتب العلمية، بيروت - لبنان، 2007/1428.



نور الدين علي بن سلطان الهروي الملكي الحنفي، ت 1014 هـ، أنوار القرآن و أسرار الفرقان، دار الكتب العلمية، بيروت – لبنان، 2015، 2.31.

نور الدين علي بن سلطان الهروي الملكي الحنفي، ت 1014 هـ، مرقة المفاتيح شرح مشكاة المصابح، دار الكتب العلمية، بيروت – لبنان، 2015، 2.32.

3. Foydalaniman boshqa adabiyotlar

I. Internet materiallari va elektron resurslar:

- 3.1. www.bukhari.uz
- 3.2. www.iaiu.uz
- 3.3. www.islom.uz
- 3.4. www.lex.uz
- 3.5. www.muslim.uz
- 3.6. www.olymahad.uz
- 3.7. www.religions.uz